

# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

## MEDIATA'LIMNING BOSHLAG'ICH SINFDA TABIATSHUNOSLIK FANINI O'QITISH HOLATI

G'aniyeva Gulhayo Islom qizi

Termiz davlat pedagogika institut

“ Boshlang'ich ta'lim metodikasi” kafedrası o'qituvchisi

### ANNOTATSIYASI

Bugungi kunda dunyo miqyosida tabiatshunoslik fanini multimedia vositalari asosida o'qitishni takomillashtirish, xalqaro baholash dasturlari darsda o'quvchilarni tabiiy-ilmiy savodxonligini oshirish sohasida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirishga bo'lgan ehtiyoj yanada kuchaymoqda. BMTning ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha “Ma'rifiy, ma'naviy va madaniy mazmundagi materiallarni olib kirish” to'g'risidagi bitimida dunyo miqyosida ta'lim oluvchilarni o'qitish sifatiga nisbatan keng sharoitlar yaratish, ta'lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish alohida ahamiyatga ega. Bu borada samaradorlikka erishish hamda multimedia vositalarining rolini va ta'sirini oshirish, mavjud muammolarni konseptual o'rganish va tahlil qilish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

**Kalit so'zlar:** “tabiat”, “tabiat va biz”, “mediata'lim”, “metodlar”, “ta'lim texnologiyalari”, “multimedia vositalari”.

### KIRISH

Bugungi globallashev sharoitida umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida tabiatshunoslik fanini o'qitishda mediata'limdan foydalanish masalasi muhim va ahamiyatli hisoblanadi. Zamonaviy dasturlar, o'qitish usullari, metodlari, telekommunikatsiya vositalari hamda OAV jadal tezlikda rivojlanmoqda. Shu sababli ham tabiatshunoslik o'qitish metodikasi umuman olganda, barcha o'qitish metodikalar sohasidagi mediama'lumotlar, dasturiy-pedagogik vositalar va multimediali o'quv qo'llanmalarni ta'limga integratsiya qilishning didaktik talablarini aniqlash, tabiatshunoslikni o'qitishda mediata'lim va axborot texnologiyalarini qo'llash usullarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda tabiiy va ijtimoiy fanlarni o'qitishda mediata'lim va turli xil dasturiy-pedagogik vositalardan keng foydalanilmoqda. Sinflarga yangi avlod o'quv kitoblarining kelishi va ushbu kitoblarda mavzularning elektron shaklidagi video



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

darslarni ko‘rish uchun maxsus QR-kodining qo‘yilishi bilan tabiatshunoslik fani ham o‘zgara boshladi. O‘quv faoliyatining dizayni va tadqiqot shakli hamda usullari, o‘qitishning yangicha uslublari tobora ko‘proq qo‘llanilib, rivojlanib bormoqda. Tabiatshunoslik darsida mediatexnologiya vositalaridan foydalanish o‘quvchilar kognitiv faoliyatining samarali usuli bo‘lib, o‘qituvchilar uchun darsni takomillashtirishga keng imkoniyatlar ochadi.

Mediata‘limga asoslangan o‘quv mashg‘ulotlarini media vositalar hamda kompyuter dasturlaridan foydalangan holda tashkil etish, o‘rganilayotgan materiallarni yanada aniqroq va tushunarliroq taqdim etishi va o‘quvchilarning tasavvur qilish imkoniyatini keng ko‘lamda oshirishga yordam beradi. Ma‘lumki, tabiatshunoslikning “Yer-quyosh sistemasidagi sayyoralar” bo‘limini o‘qitishda o‘quvchilarda tasavvur hosil qilish bilan bog‘liq, muammolar kuzatilishi mumkin. Buning sababi shundaki, hamma o‘quvchilarning ham tasavvur va idrok qilish qobiliyati bir xil emas. Agar biz ushbu bo‘limdagi mavzularini maxsus QR-kodli, ya‘ni kim media vosita sifatida video elektron dastur va qo‘llanmalardan foydalansa, o‘quvchining tasavvur qilish imkoniyati oshishiga hamda xotirasida yana ham mustahkam o‘rin olishiga erishgan bo‘lamiz. Bundan tashqari, kompyuter orqali dars o‘tish, kompyuter orqali mavzuda berilgan jismlarni modellashtirish dars vaqtini tejaydi, o‘qituvchining darsga tayyorlanish jarayonini osonlashtiradi. Tabiatshunoslikda biz ba‘zi misol uchun Osmon, Yer, Quyosh, Sayyoralar ularning harakati kabi mavzularni o‘tganimizda, ob‘yektlarning harakatini foydalanuvchining ushbu harakatga, jarayon, yoki hodisaga ta‘siriz aks ettirishi mumkin bo‘lgan model sifatida tushunamiz. Kompyuterda hodisalarni tasavvur qilishimiz va undan mediaxabar ko‘rinishida foydalanishimiz mumkin.





**1.1-rasm. Sayyoralar mavzusining QR-kodi. Multimedia vositalari va ulardan foydalanish**

Multimedia vositalari (multimedia-ko'p vositalilik) - bu insonga o'zi uchun tabiiy muhit: tovush, video, grafika, matnlar, animatsiya va boshqalardan foydalanib, kompyuter bilan muloqotda bo'lishga imkon beruvchi texnik va dasturiy vositalar majmui.

Multimedia-rivojlanayotgan zamonaviy axborotlar texnologiyasi. Uning ajralib turuvchi belgilariga quyidagilar kiradi: axborotning xilma-xil turlari: an'anaviy (matn, jadvallar, bezaklar va boshqalar), original (nutq, musiqa, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animatsiya va boshqalar) turlarini bir dasturiy



maxsulotda integratsiyalaydi. Bunday integratsiya axborotni ro'yxatdan o'tkazish va aks ettirishning turli qurilmalari: mikrofon, audio-tizimlar, optik kompaktdisklar, televizor, videomagnitofon, videokamera, elektron musiqiy asboblardan foydalanilgan holda, kompyuter boshqaruvida bajariladi;

- muayyan vaqtdagi ish, o'z tabiatiga ko'ra statistik bo'lgan matn va grafikadan farqli ravishda, audio va videosignallar faqat vaqtning ma'lum oralig'ida ko'rib chiqiladi. Video va audio axborotlarni kompyuterda qayta ishlash va aks ettirish



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

uchun markaziy protsessor tez harakatchanligi, ma'lumotlarni uzatish shinasining o'tkazish qobiliyati, tezkor va video-xotira katta sig'imli tashqi xotira (ommaviy xotira), hajm va kompyuter kirish-chiqish kanallari bo'yicha almashinuv tezligining taxminan ikki barobar oshirilishi talab etiladi [12;34-b].

- "Inson-kompyuter" interfaol muloqotining yangi darajasi, bunda muloqot jarayonida foydalanuvchi ancha keng va har tomonlama axborotlarni oladiki, mazkur holat ta'lim, ishlash yoki dam olish sharoitlarini yaxshilashga imkon beradi. Multimedia vositalari asosida o'quvchilarga ta'lim berish va kadrlarni qayta tayyorlashni yo'lga qo'yish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan. Multimedia tushunchasi XX asrning 90-yillari boshida hayotimizga kirib keldi. Uning o'zi nima degan savol tug'iladi? Ko'pgina mutaxassislar bu atamani turlicha tahlil qilishmoqda.

Bizning fikrimizcha, multimedia-bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video, matn, grafika va animatsiya (ob'yektlarining fazodagi harakati) effektlari asosida o'quv materiallarini o'quvchilarga yetkazib berishning mujassamlangan holdagi ko'rinishi. Rivojlangan mamlakatlarda o'qitishning bu usuli hozirgi kunda ta'lim sohasi yo'nalishlari bo'yicha tatbiq qilinmoqda. Hatto har bir oila multimedia vositalarisiz hordiq chiqarmaydigan bo'lib qoldi. Multimedia vositalarining 1981-yildagi yalpi oboroti 4 mlrd. AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lsa, 1994-yili esa 16 mlrd. AQSh dollarini tashkil qildi. Hozirgi kunda esa sotilayotgan har bir kompyuterni multimedia vositalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Kompyuterlarning XX asrning 70-yillarida ta'lim sohasida keng qo'llash yo'lida urinishlar zoye ketganligi, avvalombor, ular unum-dorligining nihoyatda pastligi bilan bog'liq edi. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish ikki barobar unumli va vaqtdan yutish mumkin. Multimedia vositalari asosida bilim olishda 30 % gacha vaqtni tejash mumkin bo'lib, olingan bilimlar esa xotirada uzoq muddat saqlanib qoladi. Agar o'quvchilar berilayotgan materiallarni ko'rish (video) asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlab qolinishi 25-30 % oshadi. Bunga qo'shimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishda mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 75 % ortadi. Bunga biz multimedia vositalari asosida xorijiy tillarni o'rganish jarayonida yana bir bor ishonch hosil qildik.

Multimediali dasturiy-pedagogik vositalar quyidagi imkoniyatlarga ega: o'quv jarayonini individuallashtirish va farqlash; xatolar tashxisi va mulohazalar bilan nazoratni amalga oshirish; kompyuter tomonidan oddiy hisoblash va grafik ishlarini



# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

bajarish orqali o'qitish vaqtini tejash; o'quv mashg'ulotlarida ma'lumotlarni vizual tarzda taqdim qilish; o'rganilayotgan jarayonlar yoki hodisalarni modellashtirish; turli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirish; ma'lum bir hodisa yuzasidan o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish; ta'lim olish uchun motivatsiyani kuchaytirish; kognitiv-faoliyat madaniyatini shakllantirish va boshqalar.

“O'quv kompyuter muhiti” atamasi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan qo'llanilgan. Ulardan A. L. Smetannikov “o'quv kompyuter muhiti”ni “aqliy harakatlarning funksional ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan individual mavzular va fanlarning bo'limlarini o'rganish uchun ishlatiladi[14;28-b].

Demak, ko'rinadiki, o'quv jarayonida kompyuter orqali boshqariladigan dasturiy-pedagogik vositalardan yoki elektron o'quv qo'llanmalardan foydalanish fanni o'qitishda va o'quvchilarning bu fan haqidagi tasavvurlarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda tabiatshunoslik fani bo'yicha ishlab chiqilayotgan multimedial elektron o'quv qo'llanmalar quyidagi didaktik talablarga javob berish kerak:

- tabiatshunoslik ta'limining minimum mazmuniga, ya'ni DTS ga muvofiqligi va shu bilan birga ushbu minimal darajadan yuqori bo'lishi;
- interfaol modellar mavjudligi;
- qarama-qarshi aloqalar mavjudligi;
- o'quvchilarning tadqiqotchilik ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirishga sharoit yaratilishi;
- o'quvchilarning o'zlashtirish qobiliyatlariga muvofiqligi va ularni individual rivojlantirish uchun sharoit yaratish.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Norbo'taev X.B. Boshlang'ich sinf tabiatshunoslik darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodikasi // Zamonaviy ta'lim. – Toshkent, 2016. - № 6. – S. 34 – 39.
2. Narbayev A.B. Mediatexnologiya vositalaridan foydalanish astronomiya o'qitishda samaradorlikni oshirishning muhim omili. //O'zMU xabarlari. -Toshkent, 2018. -B. 268-272.
3. Norbo'taev X., Eshquvvatov Sh. Boshlang'ich sinflarda didaktik o'yinli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi // Zamonaviy ta'lim. – Toshkent, 2015. - № 6. – B. 67 – 68.



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

4. Rayhon Beruniy. Tarayhalar (Javohirot kitobidan) -T.: Meros,1991. -47
5. Bahromov A.D., Sharipov Sh., Nabieva M. Tabiatshunoslik. Umumiy o'rtata'lim maktablarining 3–sinfi uchun darslik. –T.; Cho'lpon, 2019 y.-126 b.
6. Бекетова О.А. Инновация в образовании: понятие и сущность // Теория и практика образования в современном мире: материалы Междунар. науч. конф. Июль. 2014 г. – Санкт-Петербург, 2014. – СПб.: Сатис, 2014. – С. 1 – 2.



# E- Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings

